



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2022- YILNING
YANVAR-DEKABR OYLARIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10421,9 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1963,5 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

8458,4 mlrd.
so'm



O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi

2021- y.

1963,5 mlrd.
so'mga



Hajmning
o'sishi

10421,9 mlrd.
so'm



Xizmatlar hajmi

2022- y. Yanvar-dekabr

115,7 %

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	10421,9	115,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	545,0	120,4
Moliyaviy xizmatlar	2 228,7	129,0
Transport xizmatlari	2 830,1	119,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 279,3	103,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	230,7	101,9
Savdo xizmatlari	2 267,0	105,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	239,9	109,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	677,6	113,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	133,5	120,9
Ijara xizmatlari	188,8	111,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	297,8	108,3
Shaxsiy xizmatlar	385,2	105,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	119,9	121,7
Boshqa xizmatlar	277,7	105,8

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **27,2 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (**21,7 %**), moliyaviy xizmatlar (**21,4 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**6,5 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda transport xizmatlari umumiy hajmning **27,2 %** ini tashkil etgan. 2021- yilda me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,1 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish moliya xizmatlarida (**29,0 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**21,7 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**20,9 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**20,4 %**), transport xizmatlarida (**19,1 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**13,5 %**), ijara xizmatlari (**11,1 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**9,0 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilda ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 44,5 %. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – 4,2 %.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,7 %** ni tashkil etib, bu **2267,0 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning hajmi **1913,8 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **22,6 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i, **75,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,5 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,6 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yilda chakana savdo ulushi **75,9 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2228,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning hajmi **1692,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning ulushi **20,0 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **536,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **29,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ularning o'sish sur'ati **129,2 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **86,0 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **11,6 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,4 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**



Taqqoslash uchun: 2021- yilda moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **87,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **9,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,6 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.

2022- y. yanvar-dekabr

448,7

114,6

5,3

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati,
% da**

**Jami hajmdagi
ulushi, % da**

545,0

120,4

5,2

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2021-y.



2022-y. yanvar-dekabr



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**



Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2021- yilda telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,1 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-dekabr

113,5 %

O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

**677,6
mlrd. so'm**

6,5 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

Umumiyl
hajmdagi ulushi

144,5 %

2021- y.

**568,1
mlrd. so'm**

6,7 %

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **677,6** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyl hajmining **6,5 %** ini tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **113,5 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar-dekabr



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.



**2022- y.
Yanvar-dekabr**

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

185,5

**Xizmatlar
hajmi, mlrd.
so'm**

96,4

O'sish sur'ati, % da

2,2

**Xizmatlar jami
hajmidagi ulushi,
% da**

2021- y.

230,7

101,9

2,2

**2022- y.
Yanvar-dekabr**


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

2021-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **45,2** mld. so'mga ko'paydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

**2022- y.
yanvar-dekabr**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,1** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilda ushbu xizmat turlarining ulushi **89,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10421,9	115,7	121,5
Nukus sh.	4391,0	116,6	119,4
tumanlar:			
Amudaryo	535,9	117,2	116,1
Beruniy	519,6	112,6	121,4
Bo'zatov	55,2	116,0	158,0
Qorao'zak	170,7	111,3	110,5
Kegeyli	191,5	112,6	117,7
Qo'ng'irot	1545,0	121,7	131,4
Qonliko'l	141,9	112,9	125,9
Mo'ynoq	124,8	110,8	118,5
Nukus t.	211,2	110,0	123,9
Taxiatosh	237,0	115,8	112,3
Taxtako'pir	151,7	111,7	115,9
To'rtko'l	802,9	111,8	124,5
Xo'jayli	442,1	111,4	120,8
Chimboy	304,5	111,5	122,6
Shumanay	147,0	115,8	118,6
Ellikqal'a	449,9	113,6	122,1

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,5 % (2021- yilda – 0,5 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-dekabr



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi



114,2 %

O'sish sur'ati



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5310,8** ming so'mga yetdi.

2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **114,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4368,8** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati **119,9 %** da qayd etilgan.